



UDK: 327(510:581):061.1(5)

*Mamurjon OTAMURODOV,*  
*Tayanch doktorant, Toshkent kimyo texnologiya instituti, Toshkent, O‘zbekiston*  
*E-mail: mamurbek.92@mail.ru*

*PhD, dotsent R.R.G‘oziyev taqrizi asosida*

#### XIToyNING SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI DOIRASIDA AFG‘ONISTONGA NISBATAN SIYOSATI

Annotatsiya

Maqolada muallif Xitoy Xalq Respublikasining Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasida Afg‘onistonga nisbatan olib borayotgan siyosati xavfsizlik, geoiqtisodiy manfaatlar va mintaqaviy strategiyalar kesimida tahlil qilgan. Maqolada 2001-yildan keyingi uch davrni: xalqaro harbiy ishtirok bosqichi, “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi bilan bog‘liq faollashuv jarayoni hamda 2021-yildan keyingi Tolibon hukmronligi sharoitidagi pragmatik moslashuv davrini qamrab oladi. Shuningdek, Xitoyning Afg‘oniston siyosati ShHTning aksiterror, transmilliy tahdidlar, narkotrafikka qarshi kurash va mintaqaviy barqarorlik mexanizmlari bilan chambarchas bog‘liqligi alohida tahlil qilingan. Xulosa sifatida Xitoy siyosati ehtiyotkor, bosqichma-bosqich va shartli pragmatizmga asoslangani, ShHT esa mazkur siyosatni institutsionallashtirishga xizmat qiluvchi muhim platforma ekanligi asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Xitoy, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Afg‘oniston, Tolibon, ETIM, mintaqaviy xavfsizlik, geoiqtisodiyot, BRI, CPEC, Markaziy Osiyo UNAMA mandati.

#### CHINA’S POLICY TOWARDS AFGHANISTAN WITHIN THE FRAMEWORK OF THE SHANGHAI COOPERATION ORGANIZATION

Annotation

This article analyzes the policy of the People’s Republic of China towards Afghanistan within the framework of the Shanghai Cooperation Organization, examining it through the lenses of security, geoeconomic interests, and regional strategies. The article covers three distinct periods post-2001: the phase of international military intervention; the period of increased engagement associated with the “Belt and Road” Initiative; and the era of pragmatic adaptation under Taliban rule since 2021. It also specifically analyzes how China’s Afghanistan policy is intrinsically linked to the SCO’s mechanisms for counter-terrorism, combating transnational threats and drug trafficking, and ensuring regional stability. In conclusion, the article argues that China’s policy is predicated on cautious, gradual, and conditional pragmatism, and that the SCO serves as a crucial platform for institutionalizing this policy.

**Keywords:** China, Shanghai Cooperation Organization, Afghanistan, Taliban, ETIM, regional security, geoeconomics, BRI, CPEC, Central Asia and UNAMA mandate.

#### ПОЛИТИКА КИТАЯ В ОТНОШЕНИИ АФГАНИСТАНА В РАМКАХ ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА

Аннотация

В статье автор анализирует политику Китайской Народной Республики в отношении Афганистана в рамках Шанхайской организации сотрудничества в разрезе безопасности, геэкономических интересов и региональных стратегий. Статья охватывает три периода после 2001 года: этап международного военного присутствия, процесс активизации, связанный с инициативой “Один пояс, один путь” и период прагматической адаптации в условиях правления Талибана после 2021 года. Также отдельно анализируется тесная взаимосвязь политики Китая в отношении Афганистана с механизмами ШОС по борьбе с терроризмом, транснациональными угрозами, наркотрафиком и обеспечению региональной стабильности. В заключение обосновывается, что политика Китая основана на осторожности, поэтапности и условном прагматизме, а ШОС является важной платформой для институционализации этой политики.

**Ключевые слова:** Китай, Шанхайская организация сотрудничества, Афганистан, Талибан, ИДВТ, региональная безопасность, геэкономика, ОПОП, КПЭК, Центральная Азия и мандат UNAMA.

**Kirish.** Bugungi kunda Afg‘oniston masalasi xalqaro munosabatlar tizimi mintaqaviy xavfsizlik, yirik davlatlar raqobati va geoiqtisodiy bog‘liqlikning tutashgan nuqtalaridan biri bo‘lib qolmoqda. 2021-yil avgustida AQSH va NATO kuchlarining Afg‘onistondan chiqishi hamda Tolibonning hokimiyatni qayta egallashi mintaqadagi kuchlar nisbatini tubdan o‘zgartirdi. Bu jarayon Markaziy Osiyo, Janubiy Osiyo, Yaqin Sharq va Xitoyning g‘arbiy hududlari xavfsizligini bevosita bir-biriga bog‘lab qo‘ydi. Xitoy uchun Afg‘oniston endi chekka geosiyosiy maydon emas, balki Shinjon xavfsizligi, Pokiston orqali Hind okeaniga chiqish, Markaziy

Osiyo bilan transport ulanishi va xalqaro terrorizmga qarshi strategiyaning muhim komponenti sifatida baholanmoqda [1].

Xitoy siyosatining murakkabligi uning bir vaqtning o‘zida uchta strategik vazifani bajarishga urinishi bilan izohlanadi. Birinchidan, Pekin Afg‘oniston hududining ETIM/TIP, ISKP, TTP va boshqa transmilliy guruhlar uchun xavfsiz makonga aylanishining oldini olishga intiladi. Ikkinchidan, Xitoy Afg‘onistonni “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi hamda Xitoy-Pokiston iqtisodiy koridori bilan bog‘lash orqali mintaqaviy ulanish xaritasini kengaytirishni ko‘zlaydi. Uchinchidan, u ShHT, Afg‘onistonga qo‘shni

davlatlar formati, Moskva formati hamda Xitoy-Afg'oniston-Pokiston uch tomonlama dialogi orqali masalani ko'p tomonlama boshqarish mexanizmlariga joylashtiradi [13].

ShHT Xitoyning Afg'oniston yo'nalishidagi siyosatida alohida ahamiyatga ega. Tashkilotning asosiy konseptual markazida "uch yovuz kuch", ya'ni terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash joylashgan. Afg'oniston esa aynan shu uchlikning mintaqaviy tarqalish ehtimoli yuqori bo'lgan maydon sifatida qabul qilinadi. ShHTning RATS tuzilmasi Toshkentda joylashgani, a'zo davlatlar xavfsizlik idoralari o'rtasida axborot almashuvi yo'lga qo'yilgani va deklaratsiyalarda Afg'oniston barqarorligi Markaziy Osiyo xavfsizligi bilan bog'lanayotgani Xitoyning bu platformadan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi [4].

Xitoyning Afg'onistondagi geosiyosiy manfaatları 2026-yilga kelib yanada kuchaydi. BMT Xavfsizlik Kengashi 2026-yil iyun oyida UNAMA mandatini yana bir yilga uzaytirar ekan, Afg'onistondagi inson huquqlari, ayollar huquqlari, gumanitar inqiroz, terrorizmga qarshi majburiyatlar va mintaqaviy muloqot masalalari xalqaro kun tartibida saqlanib qolayotganini qayd etdi [6]. Bu qaror Xitoy tomonidan ilgari surilgan matn asosida qabul qilingani Pekinning Afg'oniston masalasini global diplomatik institutlarda ham faol boshqarishga intilayotganini ko'rsatadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Xitoy-Afg'oniston munosabatlari bo'yicha tadqiqotlar uch asosiy yo'nalishda talqin qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Birinchi yo'nalish Xitoyning xavfsizlik tashvishlari, xususan Shinjon, ETIM/TIP va chegara xavfsizligi masalalariga qaratilgan. Zhang ta'kidlaganidek, Xitoyning Afg'onistondagi yondashuvi mafkuraviy masofadan amaliy xavfsizlik ehtiyojlariga tomon evolyutsiya qilgan [15]. Bu tendensiya 2021-yildan keyin Tolibon hokimiyati sharoitida yanada dolzarblashdi.

Ikkinchi yo'nalish Xitoyning Afg'onistondagi geoiqtisodiy manfaatlarini tahlil qiladi. Tadqiqotlarda Mes Aynak mis koni, Amudaryo neft havzasi, litiy va boshqa strategik resurslar, shuningdek CPEC va BRI doirasidagi transport loyihalari muhim omil sifatida baholanadi. Reuters ma'lumotlarida Xitoyning Afg'oniston eksporti uchun tarif imtiyozlari va tog'-kon sohasidagi faolligi qayd etilgan [10]. Biroq xavfsizlik xatarlari, sanksiyalar, infratuzilma zaifligi va huquqiy tan olinmaslik iqtisodiy tashabbuslarning sekinlashishiga sabab bo'lmoqda [14].

Uchinchi yo'nalish ShHTning Afg'oniston masalasidagi roliga bag'ishlanadi. Rauf va Khan ShHTning funksional imkoniyatlari mavjudligini, ammo a'zo davlatlar manfaatlaridagi tafovutlar yagona strategiya ishlab chiqishni murakkablashtirishini ta'kidlaydi [3,4]. Hindiston-Pokiston raqobati, Rossiya-Xitoy muvozanati, Eron omili va Markaziy Osiyo davlatlarining mustaqil tashabbuslari ShHTning Afg'oniston bo'yicha institutsional salohiyatini cheklaydi.

Mansoori Xitoyning Tolibon 2.0 bilan munosabatini "moslashuvchan yo'nalish" sifatida izohlaydi [13]. NBR tahlillarida esa Pekin Afg'onistonda "kutish o'yini"ni olib borayotgani, ya'ni diplomatik aloqalarni saqlagan holda yirik investitsiyalardan ehtiyot bo'layotgani qayd etiladi. Bu omillar Xitoyning "xavfsizlik orqali rivojlanish" yondashuvini murakkablashtiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur mavzuni o'rganishda Xitoyning Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasida Afg'onistonga nisbatan olib borayotgan siyosatini tahlil qilish uchun tarixiy, tizimli, qiyosiy va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Tarixiy metod yordamida Xitoy-Afg'oniston munosabatlarining 2001-yildan keyingi rivojlanish bosqichlari o'rganildi. Tizimli tahlil usuli Xitoy siyosatining xavfsizlik, iqtisodiy va geosiyosiy jihatlarini kompleks baholash imkonini berdi. Qiyosiy tahlil orqali Xitoyning ikki

tomonlama va ShHT doirasidagi ko'p tomonlama yondashuvlari solishtirildi. Kontent-tahlil usuli asosida rasmiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlar materiallari va ilmiy adabiyotlar o'rganildi. Shuningdek, SWOT tahlil yordamida Xitoyning ShHT doirasidagi Afg'oniston siyosatining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari hamda ehtimoliy xatarlari baholandi.

**Tahlil va natijalar.** 2001-2013-yillar Xitoyning Afg'onistonga nisbatan ehtiyotkor kuzatuv va cheklangan ishtirok davri bo'ldi. AQSH boshchiligidagi harbiy operatsiya Afg'onistonni global terrorizmga qarshi urush markaziga aylantirdi. Xitoy bu davrda bevosita harbiy ishtirok etmagan holda, BMT doirasidagi rekonstruksiya tashabbuslarini qo'llab-quvvatladi, Kabul bilan diplomatik aloqalarni rivojlantirdi va 2012-yilda strategik hamkorlik munosabatlarini e'lon qildi [1]. Pekin uchun bu davrda asosiy ustuvorlik Afg'oniston hududida uyg'ur jangari tarmoqlarining mustahkamlanishini cheklash edi. Shu bois xavfsizlik mavzusi iqtisodiy loyihalardan oldinda turdi.

2013-2021-yillar BRI davri bilan bog'liq faollashuv bosqichi sifatida tavsiflanadi. 2013-yilda "Bir makon, bir yo'l" tashabbusining e'lon qilinishi Afg'onistonni Xitoyning kontinental ulanish strategiyasi bilan bog'ladi. Shu davrda CPEC, Markaziy Osiyo yo'laklari, kon loyihalari va mintaqaviy diplomatik formatlar muhim ahamiyat kasb etdi. Biroq Xitoy yirik kapital kiritishda ehtiyotkor bo'lib qoldi. Mes Aynak kabi loyihalar uzoq yillar davomida amaliy natija bermadi, chunki xavfsizlik, arxeologik meros, infratuzilma yetishmasligi va siyosiy noaniqliklar investorlar uchun yuqori xarajat yaratdi [11,12].

2021-2026-yillar Xitoy siyosatida pragmatik moslashuv davri bo'ldi. Tolibon hokimiyatni egallagach, Pekin "afg'on xalqining tanlovi"ni hurmat qilishini bildirgan holda, yangi hukumat bilan aloqalarni uzmad. 2023-yilda Xitoy Tashqi ishlar vazirligi "Afg'oniston masalasi bo'yicha pozitsiya" hujjatini e'lon qilib, suverenitetga hurmat, terrorizmga qarshi qat'iy kurash, gumanitar yordam va iqtisodiy tiklanish kabi tamoyillarni ilgari surdi [1]. Bu hujjat Pekinning Tolibonga nisbatan tanqidiy masofani saqlagan, biroq amaliy muloqotni davom ettirgan siyosatini normativ asosga joylashtirdi.

2024-2026-yillarda Xitoy diplomatik faoliyatni jadallashtirdi. Tarif imtiyozlari, qishloq xo'jaligi eksporti, tog'-kon sohasidagi ehtimoliy loyihalar va Afg'onistonning BRIGa yaqinlashuvi masalalari ko'tarildi [10]. 2025-yilda Wang Yi ishtirokidagi Xitoy-Afg'oniston-Pokiston uch tomonlama uchrashuvlari Afg'oniston va Pokiston o'rtasidagi taranglikni yumshatish hamda CPECni Afg'oniston yo'nalishiga ulash maqsadlarini ko'zlatdi [9]. Bu jarayon Xitoyning vositachi sifatidagi rolini kuchaytiradi, lekin uning muvaffaqiyati Tolibonning transmilliy guruhlariga nisbatan real siyosatiga bog'liq.

Shu o'rinda, ShHTning Afg'oniston yo'nalishidagi institutsional mexanizmlari bir necha darajada ishlashini alohida e'torof etish joizdir.. Birinchi daraja siyosiy deklaratsiyalar va davlat rahbarlari sammitlaridir. Samarkand deklaratsiyasi hamda Astana deklaratsiyasi ShHTni mintaqaviy xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va ko'p qutbli tartibotning muhim instituti sifatida ko'rsatadi [2]. Afg'oniston bevosita har bir hujjatning markaziy mavzusi bo'lmasa ham, Markaziy Osiyo barqarorligi, terrorizm, narkotrafik, transmilliy jinoyatchilik va iqtisodiy ulanish haqidagi bandlar Afg'oniston bilan uzviy bog'liq.

Ikkinchi daraja ShHT-Afg'oniston aloqa guruhi va unga o'xshash muloqot formatlaridir. Aloqa guruhi Afg'onistonni tashkilot bilan siyosiy muloqotda ushlab turishga xizmat qilgan, biroq 2021-yildan keyin Tolibon hukumati xalqaro tan olinmagani sabab bu mexanizmning institutsional

maqomi noaniqlashdi. Shunga qaramay, Rossiya va Xitoy kabi aktorlar bu formatni qayta faollashtirish g'oyasini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Ularning mantiqiga ko'ra, Afg'onistonni izolyatsiya qilish transmilliy tahdidlarni kamaytirmaydi, aksincha nazorat va muloqot imkoniyatlarini toraytiradi [8].

Uchinchi daraja RATS, ya'ni Mintaqaviy aksilterror tuzilmasidir. ShHTning rasmiy ma'lumotiga ko'ra, tashkilotning ikki doimiy organidan biri Pekindagi Kotibiyat, ikkinchisi Toshkentdagi RATS Ijroiya qo'mitasidir [4]. RATS terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi axborot almashuvi, muvofiqlashtirish va tajriba almashish vazifalarini bajaradi. Xitoy uchun RATS muhim, chunki ETIM/TIP bilan bog'liq xavotirlar faqat ikki tomonlama emas, balki ko'p tomonlama xavfsizlik kun tartibiga kiritiladi [7].

To'rtinchi daraja narkotrafik va transmilliy jinoyatchilikka qarshi hamkorlikdir. Afg'oniston uzoq yillar davomida global narkotik ishlab chiqarish va tranzit tizimining muhim manbalaridan biri sifatida baholangan. Tolibonning 2022-yildan keyingi taqiqlari ayrim ko'rsatkichlarni o'zgartirgan bo'lsa-da, narkotik iqtisodiyoti, prekursor moddalar, sintetik narkotiklar va noqonuniy moliya kanallari xavfi saqlanib qolmoqda. ShHTning 2025-2026-yillardagi anti-narkotik ekspert uchrashuvlari tashkilot bu yo'nalishni alohida xavfsizlik komponenti deb ko'rayotganini bildiradi [6].

ShHTning cheklovi shundaki, tashkilot Afg'oniston bo'yicha yagona va majburiy strategik reja ishlab chiqmagan. A'zo davlatlar manfaatlarini farq qiladi: Hindiston Pokiston omiliga ehtiyotkor qaraydi, Pokiston Tolibon bilan xavfsizlik masalasida bevosita muzokara olib boradi, Rossiya AQSH ta'sirini cheklash va Markaziy Osiyo xavfsizligini nazorat qilishga intiladi, Eron esa sanksiyalar va g'arb bilan ziddiyat fonida Afg'onistonni o'z mintaqaviy siyosatiga bog'laydi. Shu sababli ShHT Xitoyga ko'p tomonlama legitimlik beradi, ammo barcha muammolarni avtomatik hal qilmaydi [3, 4].

Shu bilan bir qatorda, Xitoyning Afg'oniston siyosati Markaziy Osiyo davlatlari uchun muhim strategik oqibatlarga ega. Afg'oniston orqali shakllanadigan transport yo'laklari mintaqaning Janubiy Osiyo va dengiz portlariga chiqish imkoniyatini kengaytiradi, ammo xavfsizlik, tranzit kafolatlari, bojxona barqarorligi va Afg'onistondagi siyosiy vaziyatning noaniqligi asosiy cheklovchi omillar bo'lib qolmoqda. O'zbekiston uchun bu yo'nalish Janubiy Osiyo bilan bog'lanish va Transafg'on transport tashabbuslarini rivojlantirish imkoniyatini bersa, Tojikiston uchun Afg'oniston avvalo chegara xavfsizligi, qurolli guruhlar va narkotrafik tahdidlari bilan bog'liqdir. Turkmaniston esa TAPI, elektr energiyasi eksporti va Lapis Lazuli yo'lagi orqali Afg'onistonni energiya va transport diplomatiyasi nuqtayi nazaridan muhim yo'nalish sifatida ko'radi.

Qozog'iston va Qirg'iziston Afg'oniston bilan bevosita chegaradosh bo'lmasa-da, ShHT, BRI va mintaqaviy savdo

tizimi orqali mazkur jarayonlarga bog'langan. Afg'onistondagi beqarorlik butun mintaqaning xavfsizlik muhiti, transport xarajatlarini va savdo aloqalariga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli Markaziy Osiyo davlatlari Xitoy tashabbuslaridan foydalanish bilan birga suveren qaror qabul qilish imkoniyatlarini saqlashi, transport diplomatiyasida Xitoy, Rossiya, Yevropa Ittifoqi, Turkiya, Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq yo'nalishlari o'rtasida muvozanatni ta'minlashi zarur.

ShHT Markaziy Osiyo davlatlari uchun Afg'oniston bo'yicha xavfsizlik muloqoti va koordinatsiya maydoni vazifasini bajaradi. Mintaqa davlatlari Xitoy va Rossiya tashabbuslarining passiv qabul qiluvchisi emas, balki o'z transport loyihalari, xavfsizlik ehtiyojlari va diplomatik tashabbuslariga ega mustaqil aktorlar sifatida namoyon bo'ladi. Xitoy strategiyasining samaradorligi ham ushbu subyektlarni tan olish va mintaqaviy manfaatlarni hisobga olish darajasiga bog'liq. Shu bois Afg'oniston yo'nalishida iqtisodiy integratsiya imkoniyatlarini xavfsizlik risklari bilan muvozanatlash, ko'p manbali moliyalashtirish, ochiq tenderlar, ekologik standartlar va mahalliy manfaatlarni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

**Xulosa.** Bugungi kunda, Xitoyning ShHT doirasida Afg'onistonga nisbatan siyosati xavfsizlik ehtiyojlari, geoiqtisodiy manfaatlar va mintaqaviy geosiyosiy strategiyalarning murakkab birikmasidir. Sirasini aytganda, Pekin uchun Afg'onistonning eng muhim jihati uning resurs salohiyati yoki tranzit imkoniyatini bilan cheklanmaydi. Asosiy masala Afg'oniston hududining Xitoy xavfsizligiga, xususan Shinjon barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligini ta'minlashdir. Shuning uchun ETIM/TIP, ISKP, TTP va boshqa guruhlar bilan bog'liq xavotirlar Xitoy diplomatiyasining markazida turadi.

ShHT Xitoyga Afg'oniston masalasini mintaqaviy xavfsizlik kun tartibiga joylashtirish imkonini beradi. RATS, siyosiy deklaratsiyalar, anti-narkotik hamkorlik, xavfsizlik kengashlari kotiblari uchrashuvlari va davlat rahbarlari sammitlari Pekin uchun ko'p tomonlama legitimlik yaratadi. Biroq ShHTning institutsional cheklovlari ham aniq: tashkilot moliyaviy va ijro mexanizmlarida kuchli emas, a'zo davlatlar manfaatlarini farq qiladi, Afg'oniston hukumatining xalqaro tan olinmagan maqomi muloqot formatlarini murakkablashtiradi.

Muxtasar qilib aytganda, Xitoy-Tolibon munosabatlari tan olishsiz hamkorlik modeliga asoslangan. Pekin Tolibonni real siyosiy aktor sifatida qabul qiladi, lekin diplomatik tan olish va yirik investitsiya masalasida ehtiyotkorlikni saqlaydi. Bu siyosat "shartli pragmatizm" deb ta'riflanishi mumkin: agar Tolibon xavfsizlik kafolatlarini bersa, qo'shnilar bilan munosabatlarni boshqarsa va iqtisodiy loyihalar uchun minimal sharoit yaratsa, Xitoy hamkorlikni bosqichma-bosqich kengaytiradi. Aks holda, Pekin muloqotni saqlab qoladi, ammo yirik majburiyatlarni cheklaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Shanghai Cooperation Organisation. 2017, January 9. About Shanghai Cooperation Organisation. Electron resource: <https://eng.sectsc.org/20170109/192193.html>
2. Ministry of Foreign Affairs of the People's Republic of China. 2023, April 12. China's position on the Afghan issue. Electron resource: [https://www.fmprc.gov.cn/eng/gjhdq\\_665435/2675\\_665437/2676\\_663356/2677\\_663358/202304/t20230412\\_11057785.html](https://www.fmprc.gov.cn/eng/gjhdq_665435/2675_665437/2676_663356/2677_663358/202304/t20230412_11057785.html)
3. S. Rauf. Transboundary interactions between Afghanistan and the Shanghai Cooperation Organization after the U.S. withdrawal. Vestnik RUDN. International Relations. 2024. –P.12-19.
4. H. Khan. The stabilizing role of Shanghai Cooperation Organization in Afghanistan. Central Asia, 91, 2023. –P.39-58.
5. Shanghai Cooperation Organisation. The Samarkand Declaration of the Heads of State Council of the Shanghai Cooperation Organisation. 2022. // Electron resource: <https://eng.sectsc.org/images/07e8/0c/14/1626298.pdf>
6. Shanghai Cooperation Organisation. Political and diplomatic cooperation: SCO Secretariat and RATS-related updates. <https://eng.sectsc.org/politics/>
7. B. Buzan, O. Wæver. Regions and powers: The structure of international security. Cambridge University Press. 2003. –P.43.

8. International Crisis Group. The Taliban's neighbourhood: Regional diplomacy with Afghanistan. 2024. Electron resource: <https://www.crisisgroup.org/sites/default/files/2024-01/337-afghanistan-regional-dynamics%20%281%29.pdf>
9. Ministry of Foreign Affairs of the People's Republic of China. Wang Yi on the outcomes of the trilateral meeting of foreign ministers of China, Afghanistan and Pakistan. 2025, May 21. Electron resource: [https://www.fmprc.gov.cn/eng/wjbzhd/202505/t20250521\\_11629994.html](https://www.fmprc.gov.cn/eng/wjbzhd/202505/t20250521_11629994.html)
10. Reuters. China, Afghanistan hold talks on mining, Belt and Road participation. 2025, August 20. <https://www.reuters.com/world/china/china-afghanistan-hold-talks-mining-belt-road-participation-2025-08-20/>
11. National Bureau of Asian Research. China's great waiting game in Afghanistan. 2026. Electron resource: <https://strategicspace.nbr.org/chinas-great-waiting-game-in-afghanistan/>
12. Van Wieringen, J. Claustre. Future of Sino-Afghan relations: Impacts on EU interests and strategic autonomy. European Parliamentary Research Service. 2023. [https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/BRIE/2023/747434/EPRS\\_BRI\(2023\)747434\\_EN.pdf](https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/BRIE/2023/747434/EPRS_BRI(2023)747434_EN.pdf)
13. M. Mansoori. China's accommodation of Taliban 2.0. Carnegie Endowment for International Peace. 2025. // Electron resource: <https://carnegieendowment.org/research/2025/11/chinas-accommodation-of-taliban-20>
14. L. Umami, B. Cipto. China's Afghan policy: De facto recognition of the Taliban regime. *Intermestic: Journal of International Studies*, 8(1), 2023. –P.57-79
15. F. Zhang. China's new engagement with Afghanistan after the withdrawal. *LSE Public Policy Review*, 2(3), 2022. 1-9. <https://doi.org/10.31389/lseppr.52>